

## O'zbekiston Prezidenti Ozarbayjonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga jo'nab ketdi.

Tashrif dasturiga muvofiq Boku shahrida davlatimiz rahbari Qo'shilmaslik harakatining dunyoda pandemiyadan keyingi tiklanish masalalariga bag'ishlangan sammiti yalpi sessiyada ishtirok etadi.

Shuningdek, Ozarbayjon Prezidenti bilan uchrashuv o'tkazilishi, unda yetakchilar ikki tomonlama ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qilishi rejalashtirilgan.

**Manba**